

PUL VA UNING VAZIFALARI

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI TALABASI
BOZOROVA XILOLA URALOVNA**

Annotatsiya

Ushbu maqolada pul tushunchasi, uning kelib chiqish jarayoni va insoniyat tarixidagi roli haqida tahliliy fikrlar bayon etilgan. Pul dastlab almashinuv vositasi sifatida paydo bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda u iqtisodiy tizimning ajralmas qismiga aylangan. Maqolada pulning asosiy funksiyalari — qiymat o'lchovi, ayirboshlash vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi va dunyo puli sifatidagi funksiyalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy davrda pulning turlari, ya'ni naqd pul, naqd pulsiz hisob-kitoblar, plastik kartalar va raqamli pullar haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Annotation

This article explores the concept of money, its historical development, and its role throughout human civilization. Initially emerging as a medium of exchange, money has evolved into an essential part of modern economic systems. The article provides a detailed explanation of the main functions of money — as a measure of value, a medium of exchange, a means of payment, a store of value, and as world money.

Kalit so'zlar: kredit pul, qog'oz pul, ijtimoiy qiymat, naqd pul, kriptovalyutalar, elektron pul, plastik karta, qiymat o'lchovi, muomala vosita, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi, raqamli valyutalar.

Keywords: credit money, paper money, social value, cash, cryptocurrencies, electronic money, plastic card, measure of value, medium of exchange, means of payment, store of value, digital currencies.

Kirish qismi

Pul — insoniyat tarixidagi eng muhim iqtisodiy kashfiyotlardan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti, savdo-sotiq va xo'jalik yuritish jarayonida ajralmas vosita sifatida shakllangan. Ilk davrlarda odamlar tovarlarni tovarlarga almashtirgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu usulning noqulayliklari sezilib, universal ayirboshlash vositasi — pul vujudga keldi. Pul nafaqat ayirboshlashni soddalashtirdi, balki iqtisodiy aloqalarni tizimli, aniqlashtirilgan va barqaror holga keltirdi.

Zamonaviy iqtisodiyotda pulning ahamiyati yanada ortib, uning turli ko'rinishlari va funksiyalari shakllandi. Bugun pul nafaqat bozordagi savdo jarayonlarini, balki bank tizimi, xalqaro moliyaviy munosabatlar va davlat siyosatining muhim tarkibiy qismini

tashkil etadi. Ushbu maqolada pulning asosiy funksiyalari, uning iqtisodiy hayotdagi oʻrni va zamonaviy shakllari haqida batafsil soʻz yuritiladi.

Pulning mohiyati va uning shakllanishi

Pul – bu shunday maxsus tovariki, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Pul umumiy tovarlarni ayriboshlashda asosiy vazifasini bajaradi. Qadimda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan, masalan, chorva mollari, mol terilari, bolta va hokazo. Keyinchalik pul vazifasini qimmatbaho metallar bajargan, chunki ular oʻzini sifatini yoʻqotmaydi va pul oʻrnini bosishda juda qoʻl kelgan. Pul oddiy mahsulot boʻlib qolmay, u ijtimoiy qiymatga ega, yaʼni hamma tovarlarni xarid etish vositasi boʻlib hizmat qiladi.

Pul evolyutsiyasi globallashuv jarayonida soha, ijtimoiy mehnat taqsimoti, tovar ishlab chiqarishining paydo boʻlishi va rivojlanishi, milliy va jahon bozorlarining shakllanishi, kredit munosabatlari va bank tizimining rivojlanishi, davlatning mustahkamlanishi, uning iqtisodiy rolining kuchayishi, bank ishidagi ilmiy-texnika inqilobi natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlaridagi sifat oʻzgarishlari bilan bogʻliq. Pul oʻzining evolyutsiyasi jarayonida metall (oltin, kumush, mis), qogʻoz, kredit pullar shaklida ishlatilib kelgan. Qiymatni oʻzida ifodalashiga koʻra pullar ikki turga boʻlinadi:

- haqiqiy pullar;
- haqiqiy pul izdoshlari - qiymat belgilari.

Haqiqiy pullar nominal qiymatini oʻzida ifodalovchi, real qiymatga ega boʻlgan metall pullar boʻlib, ular har xil shakllarda chiqarilgan va keyinchalik amaliyotda qulay boʻlgan aylana (shu shaklda metall yemirilishi kam boʻladi) shaklda chiqarilgan. Tarixiy maʼlumotlarga koʻra, birinchi tangalar bundan 26 asr oldin Lidiya va Xitoyda, XII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo davlatlarida, IX-X asrlarda Kiev Rusida zarb qilingan. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida tangalar, asosan, oltindan zarb qilingan, keyinchalik, oltin va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinlashuvi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va toʻlov, muomala vositasiga boʻlgan ehtiyojning oshishi natijasida muomalaga qiymat belgilarini kiritish zarur boʻlib qoldi. Oltin va kumush muomaladan yoʻqola bordi.

Qogʻoz pullarning paydo boʻlishi pulning nominal qiymatini real puldan ajratish boʻyicha uzoq jarayonning natijasi edi. Bu pul muomalasi vositasi sifatida pul ishlashining vaqtinchalik xususiyati bilan bogʻliq. Pulning bu turi haqiqiy pullarning vakili boʻlib, pulning muomala funksiyasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Qogʻoz pullar yuzaga kelishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin.

1-bosqich – tangalarning uzoq vaqt muomalada boʻlishi, qoʻldan-qoʻlga oʻtishi natijasida yemirilishi;

2-bosqich – tangadagi metall tarkibining buzilishi. Davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalar metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi; Bu bosqichda tanga tarkibining buzilishiga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarish qiyinligi, ular zaxiralarining kamligi ham sabab boʻlgan.

3-bosqich – davlat tomonidan emission daromad olish maqsadida xazina biletlarining chiqarilishi. Birinchi qogʻoz pullar XII asrda Xitoyda chiqarilgan, deb koʻrsatiladi. Lekin tarixiy maʼlumotlarga qaraganda, 700 yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar, Buxoro davlatida qogʻoz materiallardan pul sifatida foydalanilgan ekan. Qogʻoz pullar Amerika va Yevropada XVII- XVIII asrlarda, Rossiyada 1769 yilda chiqarilgan. Qogʻoz pullar deb, hukumat tomonidan byudjet taqchilligini qoplash uchun chiqarilgan, metall pullarga almashtirilmaydigan, lekin davlat tomonidan maʼlum kurs oʻrnatilgan pul belgilariga aytiladi.

Toʻla oltin va kumushdan boʻlmagan tangalar muomalada pul sifatida ishlatilsa-da, ularning nominal miqdori real miqdoridan farq qilgan. Shunday boʻlsa ham, bu tangalar maʼlum miqdordagi metallni ifodalagan. Qogʻoz pullar boʻlsa, muomalaga chiqarilgan vaqtda va keyin ham uzoq yillar davomida maʼlum bir miqdordagi oltinni oʻzida ifoda qilgan. Ammo biror davlatning pulida metallning zarrasi ham boʻlmagan, yaʼni ular qiymatni belgilab bergan, xolos. Qogʻoz pullarning emitenti davlat xazinasini yoki emission bank hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasida muomalaga pul belgilarini Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki chiqaradi. Qogʻoz pullarning tabiati ularning inflyatsiyaga moyilligini koʻrsatadi. Qogʻoz pullarni muomalaga chiqarishda pul muomalasi qonuni talablarini eʼtiborga olish kerak. Lekin amaliyotda har doim ham shu talablar eʼtiborga olinavermaydi. Pul muomalaga tovar aylanmasi ehtiyojini qoplash uchungina chiqarilishi kerak. Haqiqatda pul yuqoridagidan tashqari, byudjet taqchilligini, davlatning boshqa xarajatlarini qoplash uchun ham chiqariladi, yaʼni emissiya miqdori tovar aylanmasi bilan cheklanmasdan davlatning moliyaviy resurslarga boʻlgan talablariga ham bogʻliq boʻladi. Bu, albatta, muomaladagi pul massasining oʻzgarib turishiga, aksariyat hollarda uning muomalaga keragidan ortiqcha chiqib ketishiga olib keladi. Natijada pulning barqarorligiga putur yetadi, uning qadri tushadi, xalqning davlatga boʻlgan ishonchi pasayadi, toʻlov balansining barqarorligi yoʻqoladi, (passiv qoldiq hajmi ortadi) milliy valyuta kursi tushadi va h. k.

Umuman pul insoniyat kashfiyotlari ichida eng oddiy, eng tushunarli hamda eng murakkabi boʻlib hisoblanadi. Insoniyatning butun yutuqlari ham, fojialari ham pul bilan bogʻliqdir. Inson faoliyatini eng muhim xarakterga keltiruvchi kuchlardan biri pul boʻlib kelgan va shunday boʻlib qoladi.

Pulning asosiy funksiyalari

Pulning mohiyati uning funksiyalarida yanayam yaqqolroq namoyon boladi. Pul iqtisodiy kategoriya sifatida nechta funksiyani bajarishi iqtisodchi olimlar, nazariyachilar va iqtisodchilar o'rtasida juda uzoq davrdan buyon tortishuvlarga sabab bolib kelmoqda.

Iqtisodiyotni markazdan boshqarish sharoitida nashr etilgan adabiyotlarda, pul besht[^]i, ya'ni qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vosita, jamg'arma vositasi va jahon puli funksiyalarini bajarishi takidlanadi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor munosabatlari joriy etilgan mamlakatlar iqtisodiy adabiyotlarida, pul uchta, ya'ni qiymat olchovi, muomala vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalarni bajarishi bayon etiladi. P.Samuelson, Aristotelning talimotlariga tayangan holda pul faqat ikkita, ya'ni ayirboshlash vositasi, baho mashtabi birligi yoki o'lchov hisobi funksiyalarini bajarishini takidlaydi. Pulning funksiyalari xususidagi fikrlarga tayanib, pul to'rtta, ya'ni qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalarini bajaradi degan fikrga keldik.

Pulning qiymat o'lchovi funksiyasi asosan tovarlar qiymatini baho shaklida aks ettirish orqali namoyon boladi. Pulning qiymat olchovi barcha tovarlar uchun umumekvivalent vositasi sifatida ulaming qiymatini olchaydi. Barcha tovarlarning qiymati pul olchovi vositasi, ya'ni baho masshtabi, dastlabki bosqichda hukumat tomonidan o'atiladi. Masalan, metr olchovi bilan uzunlikni, kilogramm olchovi bilan og'irlikni olchagan kabi, pulning qiymat olchovi funksiyasi bilan barcha tovarlarning qiymati olchanadi. O'zbekistonda qiymat olchovi bevosita milliy valyuta «so'm», AQShda dollar, Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda evro, Buyuk Britaniyada funt sterling, Yaponiyada iyena qiymat olchovi vositasi hisoblanadi. Pulning inflyatsiya darajasi yuqori bolgan paytda uning qiymat olchovi funksiyasining amal qilishi bir qadar chegaralanadi. Masalan, 1939 yildan 1949 yilgacha Yaponiya iyenasiining inflyatsiya darajasi yuqori bolganligi uchun ko'pchilik yapon savdogarlari tovarlarning bahosini belgilashda, ayrim hollarda savdo sotiqni ham AQSh dollarida amalga oshirganlar. Chunki AQSh dollarining qiymat olchovi iyenaga nisbatan bir necha barobar mustahkam va barqaror bolgan. Shuning uchun, Yaponiyada 1939-1949 yillarda barcha tovarlar bahosi ikkita narxda, dollar va iyenada yuritilar edi. Ayni paytda, iyenada belgilangan tovarlar bahosi oshib borish tendentsiyasiga ega edi, dollarda esa baholar dastlabki holatidan o'zgarmasdan qolgan.

Pulning muomala vositasi bozor ishtirokchilari o'rtasida tovarlarni oldi - sotdisi va xizmatlarni ko'rsatish jarayonida namoyon boladi. Ushbu jarayonda pul vositachi rolini bajaradi. Pulning muomala vositasi funksiyasini bajarishining bir sharti mayjudki, u ham bolsa, tovarlarni sotib olish va xizmatlarni ko'rsatish uchun tolov bir

vaqtda amalga oshiriladi. Pulning ushbu funksiyasini bajarishda bevosita naqd pullar ishtirok etishi talab etiladi. Ayirboshlash jarayonida tovarlar bir marta qatnashib muomala maydonini tark etsa, pul muomala vositasi funksiyasi yordamida ushbu jarayonga qayta-qayta kelaveradi. Iqtisodiyotda pulning banklar orqali aylanish tezligi qancha yuqori bolsa, tovarlarni sotib olish uchun muomalaga zarur bolgan pul massasiga talab shuncha pasayadi. Pulning muomala vositasi funksiyasi o'zaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etayotgan tomonlarning faoliyati ustidan nazorat vositasi sifatida maydonga chiqadi. Markazdan rejalashtirish davrida pulning muomala vositasi bir muncha chegaralangan edi. Natijada, odamlarning qolida naqd pullar bolishiga qaramasdan o'zlari istagan tovarlarni sotib olish yoki sotib olishga imkoniyat yo'q edi. Pulning muomala vositasi funksiyasida pul va tovar hamda xizmatlar harakati bir zamon va makonda amalga oshiriladi. Pulning muomala vositasini haqiqiy real pullar ularning muomaladagi belgilari (qog'oz, kredit va elektron ko'rinishidagi pullar) bajaradi.

Tovarlar sotilganda va xizmatlar ko'rsatilganda, ular uchun tolov kechiktirib amalga oshirilgan barcha holatlarda pul to'lov vositasi funksiyasini bajaradi.

Demak, sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatlar tolov jarayonida uzilish bolmasa, pul muomala vositasini bajaradi, agar ushbu jarayon malum davrga uzilishi, ya'ni tolov kechikkan holatlarning barchasida, pul avtomatik tarzda, o'zining tolov vositasi funksiyasini bajaradi. Pulning tolov vositasi funksiyasi asosan quyidagi holatlarda namoyon boladi;

- jami ijtimoiy mahsulotni yaratish, taqsimlash va qayta taqsimlashda;
- davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini shakllantirish va qayta taqsimlashda;
- kredit muassasalari ssuda va investitsiya operatsiyalarini bajarganda kredit va investitsiya pullarini qaytarish va foiz tolovlarini tolashda;
- korxonalar va tashkilotlar o'z xodimlariga ish haqi va unga tenglashtirilgan mablaglarni tolashda va boshqa holatlarda.

Pulning tolov vositasi funksiyasi amal qilgan sharoitda naqd pullarning ishtirokiga zaruriyat bolmaydi, barcha operatsiyalar bank hisobraqamlarida biridan ikkinchisiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Pul o'zining muomala va tolov vositasi funksiyalarini bajarmagan vaqtda jamg'arma funksiyasini bajaradi.

Demak, pullar pul oboroti jarayonida tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning muomala vositasi sifatida namoyon bolmaganda, shuningdek, oldindan ko'rsatilgan xizmatlar va sotib olingan tovarlar uchun tolov vositasi vazifasini bajarmagan paytlarda jamg'arma funksiyasini bajaradi. Agar, jamiyatda yuz berayotgan iqtisodiy munosabatlarning va aholining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bolsak, pul asosan jamg'arma vositasi funksiyasini bajarayotganligining guvohi bolishimiz mumkin.

Pulning jamg'arma vositasi funksiyasi aholining vaqtincha foydalanmasdan kishilar o'zi bilan olib yurganda nyoki uyda saqlaganda, bankning omonat hisob varaqlarida saqlanishi, shuningdek, barcha turdagi xojalik yurituvchi subyektlarning naqd pul ko'rinishida kassada saqlanadigan vaqtincha bo'sh mablaglaxi va bank hisobvaraqlarida naqd pulsiz ko'rinishda namoyon boladi. Qog'oz pullar faqat real daromad keltirgandagina jamg'armaligi tushuniladi. Omonotga qo'yilgan bu pullar real daromad keltirsagina jamg'arma hisoblanadi. Uyda saqlangan pullar boylik orttirish vositasi boladi. Pul xazina to'plash vositasi bolishi uchun ular real qiymatga ega bolishi shart, ya'ni haqiqiy oltin pul (tanga)lar xazina to'plash vazifasini bajarishlari mumkin.

Pulning jamg'arma funksiyasining ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarni ta'minlash lozim:

- omonatchilarning kredit muassasalarda saqlanayotgan pul mablaglaridan iqtisodiy manfaat ko'rish, istagan paytda toliq va zudlik bilan qaytarib olish imkoniyatini ta'minlanganligi;
- qo'yilgan mablaglarning kafolatlanganligi (sir saqlanishi, iqtisodiy barqarorligi, toliq qaytarilishi);
- risk darajasining pastligi.

Pulning funksiyalari bir-biriga bevosita bogliq bolib, ular doimo bir-birini toldirgan holda iqtisodiyotda harakatda boladi.

Ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda pulning "jahon puli" funksiyasi to'g'risida talddlanadi. Hozigi davrda erkin almashuvga ega bolgan pullargina "jahon puli" bolishi mumkin. Lekin bugungi kunda ham oltin zaxiralar (quyma shaklda) jahon pulining xarid qilish uchun rezerv valyuta vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pul turlari

Hozirgi zamon iqtisodiy tizimlarida pul turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ular texnologik rivojlanish, moliyaviy ehtiyojlar va ijtimoiy o'zgarishlarga mos ravishda shakllanadi. Zamonaviy pul turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Naqd pul (Cash money)

Bu — qo'l bilan ushlab bo'ladigan, odatda, banknotlar (qog'oz pullar) va tangalar ko'rinishidagi puldir. Ular har qanday joyda to'lov vositasi sifatida ishlatiladi.

Xususiyatlari:

Tezkor to'lov imkoniyati

Yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida bevosita muomala

Bank hisobiga bog'liq emas

- Naqd bo'lmagan pul (Non-cash money)

Bu — bank kartalari, cheklar, plastik yoki elektron hisoblar orqali amalga oshiriladigan to‘lovlardir. Bu pul bank hisoblarida saqlanadi.

Xususiyatlari:

Pul aylanmasining tezligi yuqori

Qulay, xavfsiz va kuzatuvchan

Soliq nazorati osonlashadi

Misollar:

Bank hisob-raqamlari orqali o‘tkazmalar

Tovarlar va xizmatlar uchun POS-terminal orqali to‘lovlar

- Elektron pul (E-money)

Bu — maxsus elektron qurilmalar yoki platformalarda saqlanadigan puldir. Masalan: Payme, Click, Apelsin, PayPal, WebMoney, Qiwi va boshqalar.

Xususiyatlari:

Internet orqali to‘lovlarni amalga oshirish mumkin

Tezkor va masofadan boshqariladi

Xavfsizlik tizimlari bilan himoyalangan

- Plastik karta orqali pul (Card-based money)

Plastik kartalar (debet va kredit kartalari) orqali ishlatiladigan pul. Bu pullar bankda bo‘ladi, lekin karta orqali istalgan vaqtda ishlatish mumkin.

Afzalliklari:

Pulni bankda saqlash va foydalanishda qulaylik

Kredit va oylik to‘lovlar uchun mos

Bank xizmatlari bilan bog‘liq imtiyozlar

- Raqamli valyutalar (Digital currencies)

Bu — faqat raqamli shaklda mavjud bo‘lgan, davlat yoki xususiy kompaniyalar tomonidan yaratilgan valyutalardir. Masalan: CBDC (Central Bank Digital Currency) — Markaziy banklar tomonidan yaratilayotgan raqamli pul.

Xususiyatlari:

Hukumat tomonidan nazorat qilinadi

Naqd pulga muqobil

Pul siyosatini raqamli tarzda yuritish imkoniyati

- Kriptovalyutalar (Cryptocurrencies)

Bu — blokcheyn texnologiyasiga asoslangan, markazlashmagan raqamli valyutalar. Masalan: Bitcoin, Ethereum, Tether, Litecoin.

Xususiyatlari:

Markaziy nazorat yo‘q

Maxfiylik yuqori

Narxi juda o‘zgaruvchan

Ba’zi mamlakatlarda qonuniy emas

To‘satdan va kutilmaganda paydo bo‘lgan va nogohon fenomen voqelikka aylangan pullar. Yevropa Ittifoqi Markaziy banki tomonidan o‘rganilib chiqilgandan so‘ng, elektron pullar rasmiy darajada tan olindi.

Elektron pul – naqdsiz mablag‘ emas, u naqd pulga asoslangan va to‘laqonli to‘lov vositasi hisoblanadi.

To‘liq xavfsizlik elektron pullarning asosiy afzalligidir. Ular sizning cho‘ntagingizdan yoki qo‘lingizdan tushib qolmaydi, ular kasalliklarning tashuvchisiga aylanmaydi, ular yordamida to‘lovni tezda va osonlik bilan amalga oshirish mumkin.

Elektron to‘lovlar plastik karta, NFC’ni qo‘llab-quvvatlaydigan telefon yoki maxsus to‘lov chipiga ega bo‘lgan boshqa vositalar yordamida amalga oshiriladi.

“Hamkorbank” ATB va “A-Pay” elektron mablag‘lar emissiyasi bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish va qo‘shma loyihani ishga tushirishini e’lon qildi. Ushbu qadam foydalanuvchilar uchun hisob raqamlari o‘rtasida pul mablag‘larini oson o‘tkazish, tovar va xizmatlar uchun to‘lovlarni onlayn tarzda amalga oshirish, shuningdek, boshqa foydalanuvchilardan to‘lovlarni qabul qilish imkoniyatini taqdim etish orqali moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish va tezlashtirishga yo‘naltirilgan.

Elektron pullar bu — raqamli formatda ishlatiladigan muqobil qiymat. Virtual hamyonlar bank kartasisiz to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, to‘lov qilib, keshbek ham olish mumkin, bu esa ko‘plab foydalanuvchilar uchun juda qulay.

Loyiha shaffof va samarali moliyaviy tizimni yaratish orqali O‘zbekistonda moliyaviy inklyuziya va raqamli transformatsiyani mustahkamlashga yo‘naltirilgan.

Ikkala kompaniya rahbarlari loyihaning muvaffaqiyatli joriy etilishiga ishonch bildirmoqda va uning raqamli to‘lovlar bozorini rivojlantirish uchun muhimligini ta’kidlashmoqda. “Elektron pullar bu — moliyaviy xizmatlarning kelajagi sanaladi hamda Hamkorbank bilan hamkorligimiz A-Pay’ning moliyaviy texnologiyalar sohasida ilg‘or kompaniya mavqeyini yanada mustahkamlaydi”, – deydi A-Pay bosh direktori Andrey Ko.

Zamonaviy jamiyatda pul faqat qo‘lda ushlab bo‘ladigan vosita emas. Uning elektron, raqamli, virtual shakllari tobora keng tarqalmoqda. Bu pul turlarining ko‘pligi iqtisodiyotda qulayliklar yaratsa-da, xavfsizlik va nazoratni ta’minlash zaruratini ham oshiradi.

Xulosa

Pul insoniyat tarixidagi eng muhim iqtisodiy vositalardan biridir. Dastlab ayirboshlash vositasi sifatida paydo bo‘lgan pul, bugungi kunda murakkab moliyaviy tizimning

asosiy unsurlaridan biri sifatida xizmat qilmoqda. Uning qiymat o'ldiruvchi, ayirboshlash vositasi, to'lov vositasi, jamg'arma vositasi kabi funksiyalari iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy dunyoda pulning turlari ham diversifikatsiyalashgan: naqd puldan tortib elektron, raqamli va kriptovalyutalargacha bo'lgan shakllari mavjud. Har bir pul turi jamiyat ehtiyojlari va texnologik taraqqiyotga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Shu sababli, pulning iqtisodiy hayotdagi o'rnini va funksiyalarini chuqur tushunish har bir iqtisodiy subyekt — davlat, biznes va oddiy fuqarolar uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. Vikipediya.**
- 2. Pul va banklar [Matn] : o'quv qo'llanma / Abdulloev A.J. [va boshq.] .- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2021. -360 b.**
- 3. Самуэльсон П. Экономика вводной курс. М., 1964. С. 69.**
- 4. Харрис Дж. Денежная теория. М., 1990. С.75; Долан Э., Линдсей Д. Макроэкономика. СПб., 1994. С. 7-8.**
- 5. A-pay.uz**
- 6. S. Gulomov, T. Sodiqov va boshqalar – Iqtisodiyot nazariyasi. T.: Iqtisodiyot, 2021.**
- 7. Moliya vazirligi nashrlari – Pul-kredit siyosati sharhlari, so'nggi yillik hisobotlar.**
- 8. C. R. McConnell, S. L. Brue – Economics: Principles, Problems, and Policies. 21st Edition.**
- 9. Mishkin, Frederic S. – The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson, 2020.**
- 10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti: www.cbu.uz**